



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Utegenova D.
NDPI doktranti

Tayanch so'zlar: nutq, maktab, nutq madaniyati, boshlang'ich sinf o'quvchilari, nutq madaniyatini o'stirish metodikasi.

Ключевые слова: речь, школа, культура речи, учащиеся начальных классов, методика развития культуры речи.

Key words: speech, school, speech culture, primary school students, method of speech culture development.

Nutq madaniyati inson umummadaniyatning bir qismi bo'lib, fikrni til vositasida to'g'ri, erkin, aniq, izchil, yoqimli ta'sirli bayon qilishdir. Nutq madaniyati-inson bilimdonligini, yuksak ma'naviyatining ko'rsatgichi hisoblanib, uning barcha qirralari, ko'rinishlari til orqali, nutq vositasida amalga oshiriladi. Demak, nutq va til bir-biriga qanchalik yaqin bo'lmasin ularning funksiyalari alohida ajralib turadi. Nutq so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni bo'lsa, til esa fikrni bayon qilishning asosiy qurolidir. Demak, til nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda, o'quvchi-yoshlarning ongi va tafakkurini o'stirishda, ularni barkamol inson bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega. Til kishilarning fikr-mulohazalarini keng va har tomonlama yoritishda xizmat qiladi.

Bugungi kunda til oliy qadriyat sifatida shaxs xizmatlarini amalga oshirishda, davlat va jamiyat faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishda, uzluksiz ta'lim jarayonida yosh avlodni tarbiyalashda, fan ravnaqida, ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va samaradorligiga erishishda beminnat xizmat qiluvchi aloqa vositasidir.

Tilning buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Shunday ekan, qoraqalpoq tili millatimizning oliy qadriyati bo'libgina qolmay, o'quvchi-yoshlarni oila, mahalla, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatlarini to'la anglaydigan va egallagan bilimlarini hayotga tatbiq eta oladigan shaxsning nutq madaniyatini shakllantirishda buyuk xizmat qilib



kelmoqda. Shuni aytish kerakki, tildagi gap-soʻzlar, fikrlar bevosita nutq orqali, nutq jarayonida amalga oshadi. Shuning uchun ham nutq madaniyati shirinsuhanlik, donolik, bilimdonlik, xulq-atvor kabi axloqiy normalarni oʻzida mujassam boʻlishini taqozo etadi. Nutq-axloqiy madaniyat koʻzgusi sifatida yaqqol koʻzga tashlanadi. Nutqining softligi, aniq va tushunarli, sodda va taʼsirli boʻlishi har bir kishining madaniyatli ekanligidan dalolat beradi.

Nutq madaniyati bevosita tilni, uning qonun-qoidalarini ongli ravishda idrok etish, ifodali nutq tuza olish mahoratini egallashi bilan birga axloqiy madaniyatning negizi sifatida madaniy-maʼrifiy turmushning barcha sohalarida oʻzligini namoyon etadi. Demak, nutq madaniyati jamiyat maʼnaviyatini yuksaltirishda, oʻquvchi yoshlarda bilim, aql, his-tuygʻu, iroda ishonch, ong, tafakkur kabilarni shakllantirishda, barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim hisoblanadi.

Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda uzluksiz taʼlim turlari, ayniqsa boshlangʻich taʼlimning oʻrni beqiyosdir. Chunki, oʻquvchilarga nutq madaniyatining asosiy tushunchalari haqida maʼlumot berish, ularni ifodali oʻqishga oʻrgatish, xushmuomala, shirinsoʻz boʻlish, aql-idrokini oʻstirish, maʼrifat ziyosidan baxramand qilish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bevosita boshlangʻich taʼlim mazmunidan chuqur oʻrin olgan. Ularni amalga oshirishda nutqlari ravon, yuksak madaniyatli, teran fikr, yuksak tafakkurga ega boʻlishi bilan birga taʼlim-tarbiya jarayonini jahon standartlari darajasiga koʻtarishda faol ishtirok etishi, oʻquvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish davr talabidir. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, nutq madaniyatini shakllantirish tarbiyasi dastlab oilada, boshlangʻich taʼlim bosqichida bilim olayotgan bolalarda shakllanadi. Boshlangʻich taʼlimning poydevori qanchalik mustahkam boʻlsa, oʻquvchi dunyoqarashi, nutqi rivojlanadi, kamol topadi. Ularda muloqot koʻnikmalari, nutqdan foydalanish tajribasi, bilimlari takomillashadi.

Nutq-inson uchun berilgan buyuk neʼmat boʻlib, axloqiy, maʼnaviy, tarbiyaviy, turmush, musiqa, mehmondorchilik, muloqot, notiqlik, rahbarlik kabi madaniyatlarning asosi hisoblanadi. Nutq tilning qudratli omili sifatida inson shaxsini kamolga yetkazuvchi, uning xulqi-odobi, insoniy xislati va fazilatlarini uygʻunligini taʼminlovchi ibrat va tarbiya hamdir. Zero, u xalqqa kuch-quvvat, ruhiy barkamollik bagʻishlaydi.

Til va nutq taʼlim-tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida oʻquvchi-yoshlar ongi va qalbiga singdiriladi. Nutq madaniyati kishi ongi va fikrining amaldagi ifodasidir. Shu maʼnoda har qanday ongli, farosatli odam til va soʻzga eʼtibor bilan munosabatda boʻladi.

Qoraqalpoq tilining izohli lugʻatida “nutq-fikrni soʻz orqali ifodalash qobiliyati, mahorati” – deb taʼkidlanishi bilan birga uning amaldagi, soʻzlashuv jarayonidagi ahamiyati va “Poetik nutq. Badiiy nutq. Ogʻzaki nutq. Jamoat nutqi oldida

aytiladigan, o‘qitiladigan gap, va Otashin nutq. Hayajonli nutq. Nотиqing nutqi. Nutq so‘zlamоq. Nutqqa tayyorlanmoq” kabi turlari ko‘rsatilgan [5].

T.Qudratovning ta’kidlashicha “Nutq-til vositasida inson faoliyatini o‘zgartirishda, rivojlantirishdagi muloqot shakli. Nutq shaxsiy faoliyatni nazorat qilish va boshqarish maqsadini axborot asosida amalga oshirish jarayoni. Psixologiyada nutq inson funksiyasini ruhiyatining oliy tizimi. Bu tafakkur, ong, xotira, his-tuyg‘ular va boshqalar” [6;75]. Nutq faoliyatining tuzilishi har qanday xatti-harakatlar bilan mos kelishi kerak. Nutq madaniyati ichki reja va yo‘nalishlarni nazorat qilib, ularni amalga oshiradi. Nutq faol, konstruktiv bo‘lishi mumkin. Nutq inson faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Uning turli shakllari mavjud. Nutq alohida xususiyat va qadriyatlarga ega. Masalan so‘zlashuv nutqi, badiiy nutq va boshqalar. Nutqni psixologlar bilan fiziologiya, psixolingvistika kabi fanlar ham o‘rganadi.

Og‘zaki nutq-til vositasi yordamida muloqot qilinadi. Og‘zaki nutqning xarakterli tomoni shundaki nutq axborotning ba’zi bir xususiyatlari tartib bilan amalga oshiriladi. Og‘zaki nutq jarayonida taxminan mo‘ljallanish, bir vaqtning o‘zida rejalashtirish, nutqni nazorat qilish va amalga oshirish kabilar nazarda tutiladi.

Pedagog olim G.X.Jumashevaning ta’kidlashicha: “Nutq-til orqali odamlarning muloqoti. Nutq muloqoti-odamlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etadi. Bir birini bilishga yordam beradi. Shaxslararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Nutq til normalari, qonun-qoidalari asosida kamol topadi” [2;56].

Bola kattalar bilan muloqot jarayonida tilni o‘zlashtiradi. Nutq fikrlarni ifoda etishning asosiy omili bo‘lib, inson tafakkurining asosiy mexanizmini, fikrlash operatsiyasini amalga oshiradi.

Nutq esa saqlab qolish, qabul qilish, tasavvur qilish, o‘z hissiyotlarini tushunish, odobini boshqarish kabi holatlar bilan bevosita bog‘liqdir”.

Nutq faoliyat turiga qarab ichki, tashqi, og‘zaki va yozmaga bo‘linadi. Tashqi nutq-muloqot maqsadida, ichki nutq so‘zsiz bo‘lib, u ong, o‘z-o‘zini anglash, tafakkur jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Tashqi yoki og‘zaki nutq dialog yoki monolog sifatida ishlatiladi. Dialog yoki so‘zlashuv nutqi odatda to‘liq bo‘lmasligi mumkin. Monologik nutq bir kishining uzoq vaqt so‘zlashi (gapni bo‘lmaslik) nazarda tutiladi. Bunga tayyorgarlik ko‘riladi va ma’lum auditoriyaga mo‘ljallanadi. O‘zining tizimi bilan monolog nutq yozma nutqqa yaqindir. Og‘zaki nutq o‘z xususiyatlariga ega. Bular qaytarishlar, ba’zi bir fikrlarni, gaplarni alohida qaytarishlar, auditoriyaga taalluqli savollar va boshqalar.

S.I.Ojegovning “Словар русского языка ” lug‘atida 1.Nutq – bu gapirish qobiliyati. Nutqni o‘zlashtirish. Nutq qiyinchiliklari. Aniq ifodalangan nutq. San’at bilan chiroyli gapirish, nutq qilish. 2. Til mahoratining turli ko‘rinishi. She’riy nutq,



og‘zaki va yozma nutq. Gapirish nutqi. 3. Til jarangdorligi, rus, musiqa nutqi, ko‘p tilli nutq. 4. Gaplashish, suhbatlashish. Aqlli nutqni eshitish. 5. Ko‘pchilik oldida so‘zga chiqish. Nutq bilan so‘zga chiqish. Tabrik nutqi” kabi turlari mavjud [4;20].

N.Mallayevning “So‘z san’atining gultoji” kitobida ta’kidlanishicha “Nutq madaniyati birinchi navbatda oilada shakllanadi. Kattalar bilan va kundalik hayotda turli, umumiy, adabiy bo‘lmagan so‘zlar o‘zlashtiriladi. Bolalar bunday so‘zlarni yaqinlaridan, tengdoshlari, bolalar jamoasidan o‘rganadilar. Bolalarning lug‘atini rivojlantirishda turli janrlardagi adabiyotlarni mustaqil o‘qish, bilimlarini oshirish muhim o‘rin tutadi. Bunda kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini she’riyatda ifodalangan badiiy omillarga jalb etish katta ahamiyatga ega. Ifodali o‘qish, badiiy adabiyot o‘quvchi shaxsiga ta’sir etish bilan birga nutq madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi” [3;120].

Shunday ekan, boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirish, kichik yoshdagi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish barkamol avlodni voyaga yetkazishning bosh obyektini hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Закон « О государственном языке ККАССР ». -N.: Qoraqalpog‘iston 1990.
2. G.X.Jumasheva. Теоретико-методические основы формирования навыков общения на кара-калпакском языке./Monografiya. T., «Fan», 2007.
3. N.Mallayev. So‘z san’atining gultoji. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1991 y. 149 b.
4. S.I.Ojegov. Словар русского языка. 22-е издание. / Под ред. чл. корреспондента АНССР N.Yu. Shvedovoy. – Moskva: Russkiy yazik. 1990. – 921 s.
5. Qaraqalpaq tilini tusindirme sozligi. - N.: Qaraqalpaqstan, 1987.
6. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. –T.: O‘qituvchi 1993 y. 160 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan. Unda umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida tarbiya jarayonida nutq madaniyatini shakllantirishning o‘quvchi hayotidagi o‘rni va o‘quvchilarning tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishning ahamiyati, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini nazorat qilish orqali uni rivojlantirishga e’tibor berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются вопросы культура развитие речи и мышление детей начального школьного возраста в общеобразовательных начальных школах, раскрывает сущность понятия роль и место развитие культуры речи учащихся начальных классов в процессе воспитания и обучения начальных обще образовательных школах и вместе с тем особое внимание уделяется развитию творческого мышление и мировоззрение учащихся начальных классов. Статья посвящена изучению проблемы развитию культуры речи и мышления учащихся начальных классов на основе формирование основ культуры общения.

SUMMARY

The article is devoted to the problems of developing speech culture and thinking of primary school students. It focuses on the role of the formation of speech culture in the education process in the primary classes of general education schools in the life of the student and the importance of developing students' thinking and worldview, as well as its development by controlling the speech of primary school students.